

HUDUD BRENDINI YARATISH TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY SHARTI HISOBLANADI



Hudud brendini yaratish tadbirkorlik faoliyatining asosiy sharti hisoblanadi

Davlatimiz rahbari tashabbusi asosida Respublikamiz hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish, fuqarolar bandligini ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatini ko'tarish maqsadida Sayhunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tumanlari tajribalari asosida tizimli ishlar olib borilayotir. Bunday ishlar bizning So'x tumanida ham amalga oshirilmoqda va Vatanimiz iqtisodiy salohiyatini ko'tarishda bizning tadbirkorlarni ham hissasi bor desak, mubolag'a emas.

Tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev Oftobru mahallasida bo'lib, mahalladagi barcha tadbirkorlar bilan uchrashdi va ularning muammolarini o'rGANISH barobarida faoliyatini yanada kengaytirishga doir o'zining taklif va tavsiyalarini berdi. Aynan Oftobru mahallasidagi asosiy drayver bu tadbirkorlik va ishlab chiqarish hisoblanadi.

Tuman hokimi tadbirkor Nasriddin Uzoqov faoliyati bilan tanishdi. Tadbirkor ayni kunda o'z xonardonida oqqand mahsuloti ishlab chiqaradi.

Tuman hokimi ushbu yo'naliishda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qadoqlab, eksportga yo'naltirish va tuman brendini yaratish lozimligini qayd etdi. Mahallada ayni kunda 4 nafar oqqand ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tadbirkorlik sub'ekti mavjud va barcha tadbirkorlar tuman hokimi taklifini qo'llab-quvvatalashga tayyor ekanliklarin bildirishdi va bu bo'yicha mahalla hokim yordamchisiga alohida ~~ko'rsatmalar berildi.~~





Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-24 18:38:35